

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



SOTSIAL STATISTIKA
FANINING O'QUV DASTURI (SILLABUS)

Bilim sohasi: 400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi: 410000 – Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi: 60410800 – Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)



Toshkent – 2024-yil

Mazkur o'quv dasturi (sillabus) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashning 2024 yil "22" 06 dagi 11- bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024 yil "20" 08 dagi 269-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

Ushbu o'quv dasturi (sillabus) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiy statistika" kafedrasining 2024-yil "21" 08 dagi 21-sonli yig'ilishi bayonnomasi bilan ma'qullangan.

"Iqtisodiy statistika" kafedrası mudiri



i.f.f.d. prof. B. Utanov

Tuzuvchilar:

U.M. Kamaletdinov - TDIU "Iqtisodiy statistika" kafedrası katta o'qituvchisi

M.E. Raxmataliyev - i.f.f.d. TDIU "Iqtisodiy statistika" kafedrası professori dotsenti

Taqrizchilar:

B.K. G'oibnazarov - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi huzuridagi Kadrlarni malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti direktori, i.f.d., professor (turdosh OTM)

B.X. Mamatkulov - i.f.d., TDIU "Iqtisodiy statistika" kafedrası professori

Kelishildi:

S.U. Mexmonov

imzo

TDIU O'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektor, i.f.d., professor

S.S. Mirzaev

imzo

TDIU MTU "Axborot texnologiyalari" kafedrası mudiri t.f.n., dotsent (turdosh OTM)

L.M. Murodov

Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig'i (kadrlar buyurtmachisi)



FAN TO'G'RSIDA MA'LUMOT

Fan kodi: SOCSTA1405

Fan nomi: Sotsial statistika

Semestr/Yil: 5-semestr/ 2024-2025-o'quv yili

Kafedra: Iqtisodiy statistika

Soatlar/kreditlar miqdori: 5 ECTS

Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Laboratoriya	Mustaqil ta'lim	Jami
30	30	0	90	150

Fan bo'yicha mashg'ulotlarning joylashuvi:

Mashg'ulot joyi va vaqti: [Dars jadvaliga asosan](#)

Prerekvizitlar: Ushbu fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun talabalar "Statistika nazariyasi" va "Iqtisodiy statistika" fanlari bo'yicha olingan bilimlari yetarli bo'lishi kerak.

Fan uchun mas'ul kafedra: "Iqtisodiy statistika" kafedrası

O'QITUVCHI TO'G'RSIDA MA'LUMOT

O'qituvchilar: ma'ruza mashg'ulotlari – Kamaletdinov Ulug'bek Muzaffarovich,
Raxmataliyev Muzaffar Eshdavlatovich;
amaliy mashg'ulotlar – Kamaletdinov Ulug'bek Muzaffarovich,
Raxmataliyev Muzaffar Eshdavlatovich.

Kafedra joylashgan joyi: TDIU, 3-o'quv binosi, 403-xona

Telefon: 71-239-28-06 (ish telefoni raqami)

E-mail: ulugbek.kamaletdinov@gmail.com, raxmataliyev19841984@gmail.com

Talablarni qabul qilish vaqti: Talabalar darsdan tashqari vaqtda o'qituvchi bilan uchrashish uchun o'qituvchi elektron pochta orqali xat bilan murojaat qilib, uchrashuv vaqtini belgilab olishlari mumkin.

I. Fan tavsifi

Talabalar ushbu fanni o'qish natijasida quyidagi keng ko'lamli ko'nikmalarga ega bo'ladilar: Sotsial statistikaning metodologik asoslari; aholi soni, tarkibiy taqsimlanishi va joylashishi; aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlari va dinamikasi; aholi migratsiyasini statistik o'rganish; demografik setka; aholi sonini prognozlash va demografik siyosat; iqtisodiy faol aholi va mehnat resurslari; aholi daromadlari va iste'moli; turmush darajasi statistikasini o'rganish.

Sotsial statistika – aholida yuz berayotgan ijtimoiy-demografik va aholi turmush darajasiga aloqador jarayonlarni har taraflama o'rganishga qaratilgan bo'lib, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar turkumiga kiradi. Bunda talabalarga aholi bilan bog'liq yuz berayotgan ommaviy ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va turmush sharoiti jarayonlarning miqdoriy jihatlarini sifat tomonlari bilan uzviylikda, aniq zamon va makonda o'rganish hamda tadqiqot natijalarini amaliyotda tatbiq etish ko'nikmalarini yaratishga e'tibor qaratiladi

II. Fanning maqsadi

Sotsial statistikaning nazariy va uslubiy asoslarini tushuntirish orqali amaliyotga yo'naltirish:

- aholi to'g'risidagi ma'lumotlar manbalari, ularning mazmuni, mohiyati va turlari, aholining soni va tarkibini o'zaro bog'liqligi, aholining ijtimoiy ahvoli to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish metodlarini o'rgatish;

- aholi soni va uning dinamikasi ko'rsatkichlari, aholi tarkibi haqida tushuncha va uni o'rganishning ahamiyati, demografik qarish, aholi yoshini belgilashdagi muammolar, aholining oilaviy tarkibi va joylashishi haqida tushunchalar berish;

- aholining tabiiy harakati haqida tushuncha va uning tarkibiy qismlari, bolalarning vafoti, yoshi va kasallik sabablari bo'yicha vafot etish ko'rsatkichlari, aholining kelajakda ko'radigan umri uzunligini, nikohlar turi va hisobga olish muammolarini o'rgatish;

- migratsiya va uning o'lchamlari muhimligi, tashqi va ichki migratsiya, migratsiya ko'rsatkichlari tizimi, ma'muriy yozuvlar, retrospektiv aholini ro'yxatga olish uchun savollar tuzishning o'ziga xos jihatlarini yoritib berish;
- demografik setka haqida tushuncha, Leksis setkasi, demografik setkalarda aholi guruhlarini tasvirlash, Lotka koeffitsiyenti, Fertillik "muammolari" kabi usullarini o'rgatish;
- aholi prognozi haqida tushuncha va modellash, stabil va statsionar aholi modellari, BMT metodologiyasi bo'yicha aholi sonini prognoz qilish, demografik siyosat haqida tushuncha, oilani rejalashtirish dasturlari haqida tushunchalar berish;
- bandlik va ishsizlik statistikasi, ishsizlikni kamaytirish va aholi bandligini oshirish sohasidagi davlat siyosati, mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari, mehnat unumdorligi statistikasi haqida tushunchalar berish;
- aholi daromadlari ko'rsatkichlari tizimi, aholining pul daromadlari va xarajatlari balansi, demografiya doirasida tabaqalanish kambag'allik ko'rsatkichlari tizimi va ularni hisoblash usullarini o'rgatish;
- aholi turmush darajasi mohiyati va ko'rsatkichlari, inson taraqqiyoti konsepsiyasi va uning darajasini baholash, aholining turmush darajasini mintaqalararo taqqoslash, atrof-muhit ifloslanishi muammolari baholash usullari o'rgatish.
- ijtimoiy sohadagi tarmoqlar va faoliyat turlarining tarkibi, raqamli analitik platformalar statistik ma'lumotlarning asosiy manbai sifatida iashlatish va xalqaro statistik hamjamiyat tomonidan tan olingan yangi ma'lumotlar manbalaridan foydalaishni o'rgatish.

III. Ta'lim berish natijalari

Ushbu fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirib, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

1. Sotsial statistikaning nazariy va uslubiy asoslari tarkibi bo'yicha tushunchasini mustahkamlaydi.
2. Aholi to'g'risidagi ma'lumotlar manbalari, ularning mazmuni, mohiyati va turlari, aholining soni va tarkibini o'zaro bog'liqligi, aholining ijtimoiy ahvoli to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish metodlarini o'rganadi.
3. Aholining tabiiy harakati haqida tushuncha va uning tarkibiy qismlari, bolalarning yoshi va kasallik sabablari bo'yicha vafot etish ko'rsatkichlari, aholining kelajakda ko'radigan umri uzunligini hisoblash, nikohlar turi va muammolarini o'rganadi;
4. Migratsiya va uning o'lchamlari muhimligi, tashqi va ichki migratsiya, migratsiya ko'rsatkichlari tizimi, ma'muriy yozuvlar, retrospektiv aholini ro'yxatga olish uchun savollar tuzishning o'ziga xos jihatlarini anglaydi.
5. Demografik setka haqida tushuncha, Leksis setkasi, demografik setkalarda aholi guruhlarini tasvirlash, aholi prognozi haqida tushuncha va modellash, BMT metodologiyasi bo'yicha aholi sonini prognoz qilish, demografik siyosat haqida tushuncha, oilani rejalashtirish dasturlari haqida bilib oladi.
6. Bandlik va ishsizlik statistikasi, ishsizlikni kamaytirish va aholi bandligini oshirish sohasidagi davlat siyosati, mehnat unumdorligi statistikasi haqida bilib oladi.
7. Aholi daromadlari ko'rsatkichlari tizimi, aholining pul daromadlari va xarajatlari balansi, demografiya doirasida tabaqalanish va ularni hisoblash usullarini o'rganadi.
8. Aholi turmush darajasi mohiyati va ko'rsatkichlari, inson taraqqiyoti konsepsiyasi va uning darajasini baholash, aholining turmush darajasini mintaqalararo taqqoslash, atrof-muhit ifloslanishi muammolari baholash usullari o'rganadi.
9. Xalq ta'limi va sog'liqni saqlash statistikasi mohiyati va ko'rsatkichlari, mintaqalararo taqqoslash, bu sohadagi muammolari baholash usullari o'rganadi.
10. Aholining ijtimoiy ta'minoti va ijtimoiy himoyasi statistikasi kambag'allik ko'rsatkichlari tizimi va ularni hisoblash usullarini o'rganadi.
11. Atrof-muhitning ifloslanishi statistikasi ko'rsatkichlari va atrof-muhit ifloslanishi muammolari baholash usullari o'rganadi.

IV. Ta'lim berish usullari:

- real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
- esse, tezis va maqolalar yozish;
- vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;
- jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;
- muhokamalarda ishtirok etish;
- kichik guruhlarda ishlash;
- loyiha ishi bajarish;
- mustaqil ishlar bajarish;
- taqdimot tayyorlash;
- turli darajadagi testlarni yechish;
- so'rov o'tkazish;
- muammoni hal qilish.

V. Fanning tarkibiy tuzilishi:

T/r	Mavzular	Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlar rejasi	Soatlar		
			Ma'ruza mashg'ulotlari	Amaliy va seminar mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lim
1.	Sotsial statistikaning metodolik asoslari	1.1.Sotsial statistikaning nazariy asoslari, predmeti, vazifalari va usullari 1.2.Ijtimoiy sohadagi tarmoqlar va faoliyat turlarining tarkibi 1.3.Raqamli analitik platformalar statistik ma'lumotlarning asosiy manbai sifatida 1.4.Xalqaro statistik hamjamiyat tomonidan tan olingan yangi ma'lumotlar manbalari	2	2	6
2.	Demografik jarayonlarning statistik tahlili	2.1.Aholi to'g'risidagi ma'lumotlar manbalari, mazmuni, mohiyati va turlari 2.2.Aholi tarkibi haqida tushuncha va uni o'rganishning ahamiyati 2.3.Demografik qarish. Aholi yoshini belgilashdagi muammolar 2.4.Aholining oilaviy tarkibi va joylashishi	4	4	12
3.	Aholining tabiiy harakati va migratsiyasi ko'rsatkichlari	3.1.Aholining tabiiy xarakati haqida tushuncha va uning tarkibiy qismlari 3.2.Bolalarning yoshi va kasallik sabablari bo'yicha vafot etish ko'rsatkichlari 3.3.Oila va uy xo'jaligi tuzilishi 3.4.Migratsiya ko'rsatkichlari tizimi. Ma'muriy yozuvlar	4	4	12
4.	Demografik setka va prognoz	4.1.Demografik setka haqida tushuncha. Leksis setkasi 4.2.Demografik setkalarda aholi guruhlarini tasvirlash 4.3.Aholi prognozi haqida tushuncha va modellash. BMT metodologiyasi 4.4.Demografik siyosat haqida tushuncha, oilani rejalashtirish dasturlari	4	4	12
5.	Ishchi kuchi va mehnat bozori statistikasi	5.1.Iqtisodiy faol aholi, bandlik, ishsizlik va ishchi kuchi statistikasi 5.2.Mehnat xarajatlari va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi 5.3.Mehnat muxojirlari statistikasi 5.4.Ishsizlikni kamaytirish va aholi bandligini oshirishda davlat siyosati	4	4	12

T/r	Mavzular	Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlar rejasi	Soatlar		
			Ma'ruza mashg'ulotlari	Amaliy va seminar mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lim
6.	Xalq ta'limi va sog'liqni saqlash statistikasi	6.1.Aholiga ta'lim berish statistikasi 6.2.Aholining jismoniy va ma'naviy salomatligi, bo'sh vaqti statistikasi 6.3.Aholi va sog'liqni saqlash statistikasi 6.4.Axloqiy statistika	2	2	6
7.	Aholi daromadlari va iste'moli	7.1.Aholi daromadlari ko'rsatkichlari tizimi 7.2.Aholining pul daromadlari va xarajatlari balansi 7.3.Demografiya doirasida tabaqalanish 7.4.Pullik va bepul xizmatlar va sport tovarlarini iste'mol qilish	2	2	6
8.	Aholining turmush darajasini va inson taraqqiyotini o'rganish	8.1.Aholi turmush darajasi mohiyati va ko'rsatkichlari 8.2.Inson taraqqiyoti kontsepsiyasi va uning darajasini baholash 8.3.Aholining to'plangan mulk va uy-joy bilan ta'minlanishi ko'rsatkichlari 8.4.Sotsial statistikaning eng muhim ko'rsatkichlarini xalqaro taqqoslash	4	4	12
9.	Aholining ijtimoiy ta'minoti va ijtimoiy himoyasi statistikasi	9.1.Aholining ijtimoiy xususiyatlarining ko'rsatkichlari 9.2.Iste'mol narxlari va yashash narxi statistikasi 9.3.Aholining daromadlari, qashshoqlik darajasi va differentsiallashtirish 9.4.Aholining uy-joy sharoitlari va kommunal xizmatlar statistikasi	2	2	6
10.	Atrof-muhitning ifloslanishi statistikasi	10.1. Atrof muhitning ifloslanishi statistikasi haqida tushuncha 10.2. Zararli moddalarning emissiyasi, suv va havoning ifloslanishi darajasi 10.3. Atrof-muhitning ifloslanishi bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish usullari 10.4. Taqdim etilgan statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usullarini muhokama qilish	2	2	6
Jami soatlar:			30	30	90

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Aholi daromadlarini statistik o'rganish.
2. Aholi tarkibi, oila va uy xo'jaligi tuzilishini o'rganish.
3. Aholining daromadlari va iste'moli statistikasi.
4. Aholining mehnat xarajatlari va daromadlari bo'yicha statistik ma'lumotlar.
5. Aholining siyosiy va ijtimoiy hayoti statistikasi.
6. Aholining tovar va xizmatlar iste'moli statistikasi.
7. Aholining turmush darajasi va sifatini statistik o'rganish.
8. Aholining xarajatlari va iste'molini statistik o'rganish.
9. Aholining xarajatlari, moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'moli.
10. Dunyo aholisining mutlaq hajmi, taqsimoti va zichligi.
11. Ijtimoiy hodisalarni o'lchash uchun rasmiy statistikani zamonaviy tashkil etish.

12. Ijtimoiy rivojlanish va aholi turmush darajasi statistikasi.
13. Ish haqi darajasi va dinamikasi ko'rsatkichlari.
14. Ish haqi va mehnat xarajatlari statistikasi
15. Ish vaqtidan foydalanish ko'rsatkichlari.
16. Ishsizlikni kamaytirish va aholi bandligini oshirish sohasidagi davlat siyosati.
17. Jahonda urbanizatsiya: o'tmish, hozirgi holat va kelajak.
18. Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishini statistik baholash.
19. Joriy aholi soni va tarkibi: rivojlangan va kam rivojlangan mamlakatlar.
20. Korxona xodimlarining harakat ko'rsatkichlari.
21. Korxonada xodimlarning ish haqi fondi ko'rsatkichlari.
22. Mehnat bozori va ishchi kuchi statistikasi
23. Nima uchun demograflar kasallanishni o'rganishadi?
24. Oilalar va uy xo'jaliklarini statistik o'rganish xususiyatlari.
25. Oilaviy hayot tendentsiyalari.
26. O'zgaruvchan dunyo aholi taqsimoti muammolari.
27. Talabani bo'sh vaqti statistikasi.
28. Uy-joy bozori va yashash sharoitlari statistikasi.
29. Xizmat ko'rsatish sohasi va aholining uy-joy sharoitlari statistikasi.
30. Xodimlar tarkibi va soni statistikasi.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi

VII. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar:

1. Бычкова, С. Г. Социальная статистика : учебник для академического бакалавриата - Москва: Юрайт, 2022. - 864 с. - (Бакалавр. Академический курс). (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud).

Qo'shimcha adabiyotlar:

2. Usmonov B.B. Sotsial statistika (O'quv qo'llanma) — T.: TDIU, 2004 — 112 bet. (prof. Nabiev X.N. tahriri ostida). (O'quv qo'llanma universitet ARM da bosma va PDF variantda mavjud).
3. B.B. Usmonov. A.D. Abdurahmonov «Aholi statistikasi». (Darslik) - T.: TDIU, 2019 – 141 bet. (O'quv qo'llanma universitet ARM da bosma va PDF variantda mavjud).
4. Thomas J. Linneman, Social Statistics: Managing Data, Conducting Analyses, Presenting Results. 4th Edition, 2021, Routledg. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud).
5. James T. McClave, P. George Benson, Terry T Sincich. Statistics for Business and Economics. Dlen Pub. USA, 2018. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud).
6. H.Nabiyev, M.Sh.Ahmedova. Iqtisodiy statistika. Darslik. 2021 yil. 385 bet. (O'quv qo'llanma universitet ARM da bosma va PDF variantda mavjud).
7. Abduraxmonov A.D. Sotsial statistika (o'quv qo'llanma) - T.: TDIU, 2019 –128 bet. (O'quv qo'llanma universitet ARM da bosma va PDF variantda mavjud).
8. Фаттахова Ж., Тенденции рынка труда Узбекистана / Uzbekistan' labor market trends. 29 апреля 2021 года. (Ushbu hisobot universitet ARMda PDF variantda mavjud).

Axborot manbalari

1. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

2. www.mehnat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi sayti.
3. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti.
4. www.ssv.uz - O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi sayti.
5. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi rasmiy sayti.
6. www.uzedu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi sayti.
7. www.countrymeters.info – Jahon aholisi on-layn hisobi.

VIII. Talabalar bilimini baholash

Ushbu fan (modul) bo‘yicha talabalar bilimini baholash semestr davomida o‘quv materiallarini (testlar va yozma ishlar) bajarishga asoslanadi. Dars davomida talabalar 100 ballik tizimda baholanadi. Shundan, talabaning dars mashg‘ulotlaridagi ishtiroki, mustaqil ishlar va joriy natijalar uchun 20 ball, oraliq nazorat uchun 30 ball, yakuniy nazorat uchun 50 ball beriladi. Yakuniy nazorat yozma shaklda amalga oshiriladi. Joriy, oraliq va nazorat vazifalari quyidagicha taqsimlanadi:

TALABALAR BILIMINI BAHOLASH TARTIBI			
Reytingni baholash turlari	Maks. ball	Bajariladigan topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarish muddati
Joriy nazorat, shundan:	20	O‘quv jarayonining jadvali bo‘yicha	
- Amaliy mashg‘ulotlardagi faolligi	10	fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, keys stadi, kazus yoki fabula vaziyatli topshiriqlar, loyiha, kurs ishi, uy vazifalarini bajarishi	Fanning dars jadvalidagi auditoriya vaqtiga mos holda
- Mustaqil ta‘lim, shundan:	10	talabalar mustaqil ishlarini ikki yo‘nalishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etiladi	
1-mustaqil ish	5	mustaqil ta‘lim mavzularidan biri bo‘yicha taqdimot tayyorlash, esse yoki tezis yozish (1000-1200 so‘zdan kam bo‘lmasligi lozim)	O‘quv jarayoni grafigiga muvofiq dars mashg‘ulotlarining oxirgi haftasigacha
2-mustaqil ish	5	mustaqil ta‘lim topshiriqlari bo‘yicha tegsikli hujjatlar, loyiha ishi, portfolio tayyorlash	O‘quv jarayoni grafigiga muvofiq dars mashg‘ulotlarining oxirgi haftasigacha
Oraliq nazorat	20	Taqdimot shaklida, IMRAD asosida (kichik guruhlarda ishlash)	O‘quv jarayoni grafigiga muvofiq oraliq nazorat haftasida HEMIS axborot tizimi orqali yoki bevosita o‘quv auditoriyasida tashkil etiladi
Yakuniy nazorat	50	Ko‘p variantli test topshiriqlari shaklida	O‘quv jarayoni grafigiga muvofiq yakuniy nazorat haftalarida
Jami	100		

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy balli har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$YaB = JN + ON + YaN$$

bu yerda: JN – joriy nazorat; ON – oraliq nazorat; YaN – yakuniy nazorat.

bunda, $(JN + ON) \geq 30$ ball; $YaN \geq 30$ ball bo'lishi talab etiladi.

Eslatma: Joriy nazorat va oraliq nazorat uchun ajratilgan jami ballar (50 ball) ning kamida 60 foizi (30 ball)ni to'play olmagan talabaga yakuniy nazoratga kirishga ruxsat berilmaydi. Shuningdek, yakuniy nazoratda ishtirok etib, yakuniy nazorat uchun ajratilgan jami ball (50 ball) ning kamida 60 foizi (30 ball)ni to'play olmagan (ya'ni, qoniqarsiz baho olgan) talaba mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi va akademik qarzidor hisoblanadi.

IX. Akademik talablar

O'qituvchi va talaba o'trasidagi o'zaro munosabat samimiy va beg'araz bo'lishi lozim, talaba mustaqil bajargan topshiriqlarni belgilangan tartibda elektron pochta yoki o'quv platforma orqali yuboradi va javobni ham shu tartibda oladi. Belgilangan muddatda bajarilmagan topshiriqlar qayta qabul qilinmaydi. O'qituvchi talaba tomonidan bajarilgan topshiriqlarni antiplagiat dasturida tekshiradi, originallik darajasi 70 foizdan past bo'lgan ishlar baholash uchun qabul qilinmaydi. Talabaning bajargan topshirig'i 2 martagacha antiplagiat dasturida tekshirilishiga imkoniyat beriladi, natija talab darajasida bo'lmasa ish qabul qilinmaydi.

X. Mazkur o'quv dasturi (sillabus) kunduzgi ta'lim shakli uchun ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosida sirtqi, kechki va masofaviy ta'lim shakli uchun sillabuslar ishlab chiqiladi.

